



MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI



«XALQ XO'JALIGI SOHASIDA ILG'OR TEXNOLOGIYALAR TADBIQI MUAMMOLARI»

MAVZUSIDAGI HUDUDIIY ILMIIY-TEXNIK KONFERENSIYASI

MA'RUZALAR TO'PLAMI



Chorvachilikda ilg'or texnologiyalar
va innovatsion yechimlar



Dasturlash, kiber xavfsizlik va qishloq
xo'jaligi fan sohalari integratsiyasi



Ta'lim va ishlab chiqarishda innovatsiyalar,
tahlil va prognozlash vositalari



27-dekabr 2023 yil

Konferensiya IL-392103072-
"Chorvachilik komplekslarini
elektron boshqarishning mobil
ilovasini yaratish" innovatsion
loyiha doirasida olib borilgan
ilmiy-amaliy tadqiqotlar
natijalariga bagishlangan



Nukus sh. A.Dosnazarov k. 74 uy



(61) 222-49-10



www.uzplf.uz



www.tatunf.uz

<i>B.S.Raximov, A.D.Xo'janiyazov, Z.B.Saidova</i> Tibbiy texnologiyalarning samaradorligini oshirish usullar va diagnostika vositalari	238
<i>B.S.Raximov, A.D.Xo'janiyazov, Z.B.Saidova</i> Tibbiyotda signallariga raqamli ishlov berish usullari	242
<i>Б.А.Файзуллаев, А.Я.Байназаров, Г.Б.Кипшақбаева</i> Классификация неопределенности по различными характеристиками	245
<i>Sh.Rustamov, D.Jo'rayeva</i> Ilmiy texnik axborotlar foydalanuvchilari va foydalanish maqsadlari tahlili	247
<i>Z.N.Ibragimova</i> Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish	250
<i>A.A.Rashidov</i> Bo'lajak o'qituvchilarni dars mashg'ulotlarini tashkillashtirishda loyihalash kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari	253
<i>D.X.Axmadjonova, J.X.Homidjonov, J.R.Homidjonov</i> Matematika o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va cheklovlari	255
<i>F.F.Ollamberganov</i> Videokuzatuv kameralardagi harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash usullari	258
<i>A.Kalbaev</i> Ma'g'lumatlardin intelektual analizi tiykarinda medicinaliq diaqnoz qo'yiw maseleleri	261
<i>M.H.Xoliqnazarov, N.Y.Mo'sajonova</i> Она тили фанида ёзма нутқни ривожлантиришда акт воситаларидан фойдаланиш	266
<i>N.Sabitova</i> Tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda su'niy intellektning qo'llanishi	269
<i>L.Raximova, N.G'anijonova</i> Dasturiy ta'minot loyihalarini boshqarish usul va vositalari.	273
<i>O.A.Asrorov</i> Talabalarga fanlarni o'qitishda axborot xavfsizligini ta'minlash.	276
<i>A.Qahramonov, U.Sharopov</i> Ta'lim jarayonida srim prognozlash metodikasidan foydalanish	279
<i>A.A.Sa'dullayev</i> axborot xavfsizligining ta'limdagi o'rni	282
<i>A.A.Sa'dullayev</i> Virtual texnologiyalarni ta'lim jarayonida tadbiq etish	284
<i>J.T.Sunatov</i> Ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish samaradorligi	287
<i>J.T.Sunatov, R.T.Rustamov</i> Ta'limda innovatsion texnologiyalar	291
<i>N.M.Ustamova</i> Bo'lajak pedagoglarning kreativ sifatlarini rivojlantirish	293
<i>N.O'Sulaymonova</i> Pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining pedagogik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	295
<i>O.A.Sattarova</i> Kichik energiyali ionlarning qattiq jism sirtidan sochilish jarayonini o'rganish	299
<i>B.J.Mamanazarov, M.O. Meyliqulov</i> Virtual o'quv muhitida talabalarining o'zlashtirish natijadorligi	303
<i>Z.A.Abdukarimov</i> Computer linguistics in development stages	307
РЕФЕРАТИВ ҲИСОБОТ	312

ОНА ТИЛИ ФАНИДА ЁЗМА НУТҚНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА АКТ ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

М.Н.Холиқназаров (Farg‘ona viloyati 41-umumiy o‘rta ta’lim maktabi),

Н.У.Мо‘сајонова (Farg‘ona viloyati 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi)

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida yozma nutqni o‘stirishga oid taqdimotlarning o‘rni, kompyuterda yoziladigan topshiriqlarni nazorat qilish, natijalarni qisqa vaqtda aniqlash usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, yozma nutqni o‘stirishga oid taqdimotlar ahamiyati, kompyuter o‘rni, yoziladigan ishlarni nazorat qilish, natijalarni tez aniqlash usullari.

Ona tili fanini o‘qitishda ta’lim, tarbiya va rivojlanishning uyg‘unligi tamoyili multimedia vositalariga ehtiyoj borligini taqozo etadi. Yosh avlodni har tamonlama kamolga yetkazish uchun vatanga sadoqat, o‘zaro hurmat, milliy g‘oya, tabiatga muxabbat, adolatlilik unsurlarini singdirish ona tili darslarida multimedia vositalari orqali yengil amalga oshiriladi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega video, audio va animatsiyalardan mavzu bilan bog‘liqlikni saqlagan holda unumli foydalanish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ona tili darsligida berilgan hamda qo‘shimcha sharqona tarbiyaga mos bo‘lgan ma’rifuy matnlar asosida multimedia materiallarini topish va dars jarayonida qo‘llash dars samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bizga malumki, bundan 3500 yil oldin Xitoy faylasufi Konfutsiyni “Eshitganimni yodimdan chiqaraman, ko‘rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib yetaman”, degan iborali so‘zlari bugungi kunda ham o‘z ifodasini topmoqda. Talimda AKT hamda pedagogik texnologiyalarni qo‘llaganda o‘quvchi eshitish, ko‘rish, ko‘rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. AKT nafaqat o‘qitish va o‘rganish vositasi, balki o‘qituvchining talimdagi rolini o‘ynashi uchun harakatlantiruvchi kuch sifatida ham ishlaydi.

Yosh avlodga zamonaviy bilimlar berish, iqtidori, qobiliyati va intellektual salohiyatini o‘stirish uchun zarur bo‘lgan barcha imkoniyatlarni yaratish, ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ezgu fazilatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi davlatimizning doimiy diqqat etiboriga olingan[1]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish zamonaviy o‘qituvchining imtiyozi, vazifasi, mehnat faoliyatining ajralmas bo‘lagi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish hozirda barcha sohalarda rivojlanishning asosiy sabablaridan biri bo‘lmoqda[2]. Shuning uchun ona tili o‘qituvchilari o‘z fanlariga oid bo‘lgan tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari bilan birga

yangilangan umumpedagogik talablarga javob bera oladigan bo‘lishlari zamon talabidir.

Yozma nutqni o‘stirish o‘tilgan mavzuni so‘rashda, yangi mavzu bayonida, mustahkamlash yoki nazorat bosqichlarida ham qo‘llanishi mumkin. Bu o‘rinda taqdimotlar maqsadni amalga oshirishda o‘z foydasini beradi. Yaratiladigan taqdimotlarning mavzuga mosligini mazmun jihatidan mukammallashtirilib borilishi axborot-kommunikatsion texnologiyalarni ta‘lim jarayonida qo‘llashning eng samarali vositalaridan biridir. Taqdimotlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, yozma nutqini o‘stirishga, savodxonlikka o‘rgatib, undagi kuzatuvchanlik qobiliyatini, bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Inson eshitish orqali 20% o‘zlashtirsa, ko‘rish orqali 30%, amalda bajarish orqali 60-80% o‘zlashtirishi mumkunligini amaliyotda ko‘rish mumkin.

Shunday usullardan biri “Kim zukko?” usulidir. “Kim zukko?” usulini quyidagicha tashkil qilish mumkin: 1-topshiriq. Belgilangan vaqt ichida “Ona” so‘zini qatnashtirib so‘z birikmasini yozish vazifasi beriladi. Eng ko‘p so‘z birikmasi tuza olgan o‘quvchi g‘olib sanalishi aytiladi. Ish yakunida o‘quvchilarga so‘z birikmalari taqdimotda ko‘rsatiladi.

O‘quvchilar o‘zlari yozganlarini taqdimotga qarab tekshirib olishadi. So‘ng ularga shu so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzib, yozish topshiriq qilinadi. Belgilangan vaqt ichida mazmunli va ko‘p gap yoza olgan o‘quvchilar g‘olib sanaladi. Mavzuga doir misollarni o‘qituvchilarning taqdimot yordamida namoyish qilishlari, o‘quvchilarning ham taqdimotlar yordamida ijod qilishlari yozma nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

Yozma nutqini o‘stirish uchun darslarda “Kim bilimdon” usulini qo‘llash mumkin. Bu usul fel haqidagi tushunchalarni esda saqlab qolishga yordam beradi. Bunda har bir guruhdan uch nafardan o‘quvchini yozuv taxtasi yoniga taklif etiladi. Ulardan shart mayli qatnashgan maqollarni navbatma – navbat yozishlari talab etiladi.

Qaysi o‘quvchi maqol yoza olmay, besh soniyaga to‘xtab qolsa, o‘yindan chetlashtiriladi. O‘yin oxirida qolgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi. Dars jarayonida interfaol usullardan, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish shakli o‘qituvchi ijodkorligi va o‘quvchilarning harakatchanligiga bog‘liq. O‘quvchilarning yozma nutqni o‘stirish uchun turli rasmlar yoki biror mashhur kishilarning fikrlari yozilgan taqdimotni namoyish qilib, yozma ravishda kichik matn tayyorlashni topshirish ham yaxshi natija beradi. “Hikoyani davom ettirish” usulida kompyuterga hikoyaning boshlanish qismi yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilardan hikoyani davom ettirish so‘raladi. Har bir o‘quvchi hikoyani o‘zi davom ettiradi. Eng yaxshi, mazmunli tugallangan hikoya varianti kompyuterda qoldiriladi.

“Maqolni davom ettiring” usulida zehn o‘tkirligi sinaladi. Maqolning bir qismi kompyuterga kiritiladi. Har bir guruh uchun alohida yozilgan sahifa bo‘ladi. Qaysi guruh vakili o‘ziga tegishli maqolning davomini kiritsa, qo‘l ko‘tarib aytadi. To‘g‘ri topgan guruh keyingi maqolga o‘tadi va qaysi guruh birinchi bo‘lib tugatsa, shu guruh g‘olib chiqadi. Topilmagan maqolni raqib guruh vakillari topsa, qo‘shimcha ball oladi.

“Zukko o‘quvchi” usulida o‘qituvchi tomonidan imlo xatolari mavjud bo‘lgan matn kompyuter vositasida o‘quvchilarga beriladi va ular undagi imloviy xatolarni aniqlashadi. Matn ostiga nechta imlo xato topganliklarini yozib qo‘yishadi. O‘quvchilar savodxonligini oshirishda “Matn muharriri” didaktik usulidan ham foydalanish mumkin. Muharrirlar matndagi xatolarni aniqlab, to‘g‘rilab yozadilar. Bu usul olingan bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini beradi. O‘yin shartiga ko‘ra 1-taqdimotda xato yozilgan matn beriladi, o‘quvchilar xatolarni olgan bilimlari yordamida tuzatib yozadilar. 2-taqdimotda matnning to‘g‘ri yozilgan varianti beriladi va o‘quvchilar o‘z-o‘zlarini tekshiradilar.

O‘quvchilarning imlo savodxonligini oshirish maqsadida “Lug‘at diktant” usulidan ham foydalanish mumkin. Bunda kompyuter diktofoniga yozib olingan lug‘at diktant so‘zlari yozdiriladi. So‘ngra o‘quvchilarga so‘zlar to‘g‘ri yozilgan taqdimotlar namoyish qilinadi. O‘quvchilar taqdimot orqali o‘z diktantlarni tekshirib oladilar.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib yozma ishlarni yuqoridagidek usullar asosida tashkil etish o‘quv jarayonini qiziqarli, izchil, differentsiallashgan holda va individual olib borishni ta’minlaydi[3].

Yozma nutqni o‘stirish maqsadida qo‘llanadigan interfaol usullar o‘quvchining mustaqil mushohada yuritishiga, so‘z boyligini oshirishiga, xotirasini mustahkamlashga, to‘g‘ri yozish ko‘nikmasining shakllanishiga, tasavvurlarining kengayishiga, tezkorlik bilan topshiriqlarni bajarishga va vaqtdan unumli foydalanishga yordam beradi. Yozma nutqni o‘stirishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnika vositalaridan to‘g‘ri foydalanib tashkil etilgan mashg‘ulotlarda vaqt tejaladi. Matn elektron doskada bo‘lgani uchun barcha o‘quvchilarning bir vaqtda u bilan band bo‘lishadi. Bunda o‘qituvchi faqat o‘rgatuvchi, o‘quvchi bajaruvchi usulidan voz kechiladi.

Ta’limda AKT vositalaridan foydalanish natijasida o‘tiladigan dars o‘qituvchi uchun ham o‘quvchi uchun ham qiziqarli tarzda olib boriladi. Doskaga yozish o‘rnini taqdimot egallab vaqtni tejashga olib keladi. Buning uchun har bir pedagog o‘qituvchilar AKT savodxonligini mukammal o‘rganishi va o‘z mehnat faoliyatida muntazam qo‘llab kelishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda umumta’lim maktablarida AKT bo‘yicha barcha fan o‘qituvchilari uchun trening kurslar olib borilsa foydadan holi bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar


1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.-T.: “Adolat”, 2017. 25 b.
2. Abduraimova M. Ona tili ta’limida ilg‘or pedagogik texnologiya. -T., 2011.
3. Do‘stmurodova O. Ona tili ta’limi yangi pedagogik texnologiyasining mohiyati. - T., 2005.

TIBBIY TASVIRLARNI TAHLIL QILISHDA SU’NIY INTELLEKTNING QO‘LLANISHI

N.Sabitova (TATU tayanch doktoranti)

Kalit so‘zlar: Tibbiy tasvirlar, Sun’iy intellekt, Mashinali o‘qitish, Konvolyutsion neyron tarmoqlari

Tibbiy tasvirlash deganda sog‘liqni saqlash sohasida tananing ichki qismini vizual tasvirlarini yaratish uchun qo‘llaniladigan turli xil texnika va texnologiyalar tushuniladi. Ushbu tibbiy tasvirlar tashxislash, kuzatish va davolash uchun zarurdir. Tibbiy tasvirlash tibbiyot xodimlariga tanaga jarohat beradigan muolajalarsiz tanani ko‘rish imkonini beradi, bu organlar, to‘qimalar va suyaklarning tuzilishi va funksiyasi haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.



1-rasm. Tibbiy tasvir turlari

Tibbiy tasvirning turli xil turlari mavjud, jumladan:

1. X-nurlari: suyaklar va ba'zi organlarning tasvirlarini yaratish uchun elektromagnit nurlanishdan foydalanish.
2. Kompyuter tomografiyasi (KT yoki CAT skanerlash): organlar va to‘qimalarning batafsil kesma tasvirlarini yaratish uchun turli burchaklardagi rentgen nurlarini birlashtirish.